*Advances in Science and Education*, 2025, 7–10

doi: 10.70728/edu.v01.i09.002
Volume 01, Issue 09
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

# XI- XII ASR TURKIY TIL MANBALARI LEKSIKASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna [1,*]

[1]Oriental Univeriseti filologiya fanlari nomzodi, dotsent

* feruzaabdujabbarova@yandex.com

## Abstract

Maqolada XI–XII asr turkiy yozma manbalarining — “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” va “Hibatul-haqoyiq” asarlarining leksik tizimi lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu asarlar tili xalqning ma’naviy dunyosi, axloqiy qadriyatlari, diniy-falsafiy qarashlari va ijtimoiy ongining ifodasi sifatida baholanadi. Muallif uch asosiy lingvomadaniy qatlamni — madaniy-maishiy, ma’naviy-axloqiy va diniy-falsafiy qatlamlarni ajratib ko‘rsatadi. Tahlil natijasida “bilim”, “adolat”, “adab”, “el-yurt”, “haq”, “sabr” kabi konseptlar turkiy xalqlarning madaniy identitetini shakllantiruvchi asosiy lingvomadaniy markazlar ekanligi aniqlangan. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilining ushbu tarixiy leksika bilan semantik uzviyligi ko‘rsatilib, turkiy madaniyatdagi til va tafakkur barqarorligi ilmiy asosda yoritilgan.

**Key words**: lingvomadaniyat, XI–XII asr manbalari, turkiy leksika, konsept, madaniy qatlam, semantik uzviylik.

## KIRISH

XI–XII asr turkiy manbalarining leksik tizimi xalqning ma’naviy dunyosini, ijtimoiy qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy manba hisoblanadi [Mahmud Koshg‘ariy, 1960; Yusuf Xos Hojib, 1971; Ahmad Yugnakiy, 1974]. Har bir so‘z o‘sha davr jamiyatining madaniy modeli, axloqiy qadriyati va dunyo haqidagi tasavvurini ifodalagan [Jo‘rayev, 2015]. Til birliklarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish jarayonida so‘zlar madaniy kod sifatida qaraladi, ya’ni ular faqat ma’no emas, balki ma’naviy tajriba va jamoaviy ong mahsulini tashuvchi sanaladi [Mamatov, 2019; Ergashev, 2018]. Shu nuqtai nazardan, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, “Hibatul-haqoyiq” singari asarlar leksikasi xalqning tarixiy xotirasini o‘zida mujassam etgan madaniy-lingvistik manba sifatida baholanishi o‘rinli sanaladi [Abdullayeva, 2022]. Turkiy xalqlar tafakkurida “adolat”, “el-yurt”, “vatan”, “odamiylik”, “ilm”, “aql”, “fahm-farosat”, “andisha”, “sabr” kabi tushunchalar universal qadriyatlar bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos milliy mazмун kasb etgan [Qodirova, 2021; Ceylan, 2012]. Bularning har biri o‘sha davr ijtimoiy hayotini,

**Compiled on:** November 20, 2025.
**Copyright:** ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

siyosiy tartibini va axloqiy tamoyillarini belgilab bergan [Bartold, 1963; Tekin, 2000].

Demak, turkiy yozma yodgorliklar nafaqat tarixiy, balki madaniy-hissiy meros sifatida ham xalqning dunyoqarashini, қадриятлар и ва маънавий анъаналарини илмий асосда англаш имконини беради [Brown and Ogilvie, 2009]. Shu sababli, ushbu davr manbalari leksikasini lingvomadaniy tahlil qilish bugungi o‘zbek tilining semantik ildizlarini yoritishda muhim ilmiy аҳамиятга эга [Abdurahmonova, 2020; Mamatov, 2019].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiy yozma manbalar tili uch asosiy lingvomadaniy qatlamni o‘zida mujassam etgan[Ergashev, 2018; Mamatov, 2019]: 1. Madaniy-maishiy qatlam — xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an’anaviy kasb va hunarlari bilan bog‘liq leksika [Koshg‘ariy, 1960; Yusuf Xos Hojib, 1971].: “Uy”, “yurt”, “ovul”, “toy”, “bozor”, “qorovul”, “bazar”, “bo‘riq” kabi so‘zlar o‘sha davr ijtimoiy muhitini yoritgan [Ceylan, 2012; Klyashtorny Sultanov, 2004]. 2. Ma’naviy-axloqiy qatlam — “adab”, “halol”, “haq”, “sabr”, “to‘g‘rilik”, “sadoqat”, “or” kabi birliklar orqali xalqning axloqiy mezonlari ifodalangan [Jo‘rayev, 2015; Abdullayeva, 2022]. Bu qatlam insoniy kamolot, ruhiy poklik va ijtimoiy adolat g‘oyalarini tilda mustahkamlagan[Qodirova, 2021]. 3. Diniy-falsafiy qatlam — “taqvo”, “hikmat”, “zohid”, “haqiqat”, “nafs”, “ruh”, “sabr”, “ishq” kabi so‘zlar bilan belgilanadi [Ahmad Yugnakiy, 1974; Tekin, 2000]. Ular islomiy tasavvuf tafakkurining lingvistik ifodasi sifatida xalq ongiga chuqur singgan[Bartold, 1963; Abdullayeva, 2022]. Bu uch qatlam o‘zaro integratsiyada bo‘lib, tildagi leksik birliklar madaniy uzviylikni yaratgan [Mamatov, 2019].. Natijada turkiy tilda shakllangan ko‘plab so‘zlar o‘zbek adabiy tilida semantik va konseptual jihatdan davom etgan[Abdurahmonova, 2020]. “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” va “Hibatul-haqoyiq” leksikasining madaniy umumiyliklarini tahlil qilish, ularning o‘zbek tiliga ta’sir doirasini tekshirish orqali ushbu asarlar o‘z davrining eng yirik madaniy-lisoniy yodgorliklari sifatida xalqning ma’naviy ideallarini til orqali ifodalaganligi o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ularning leksikasini lingvomadaniy jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin: 1. “Qutadg‘u bilig”dagi madaniy konseptlar Asarda “bilim”, “adl”, “tenglik”, “el”, “yurt”, “boshliq”, “xalq”, “farosat” kabi so‘zlar davlat boshqaruvi madaniyati va insoniy fazilatlar konseptini aks ettiradi. Masalan, “adolat” konsepti faqat siyosiy tamoyil emas, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi ma’naviy kuch sifatida talqin qilinadi. 2. “Devonu lug‘otit turk”dagi madaniy qatlamlar Mahmud Koshg‘ariy nafaqat lug‘at tuzgan, balki xalqning urf-odati, qadriyatlari, diniy tasavvurlarini tilda qayd etgan. “Yurt”, “el”, “bo‘ri”, “qon”, “toy”, “qul”, “ota”, “ona” kabi birliklar turkiy xalqning ijtimoiy tuzilmasi va axloqiy tasavvurini yoritadi. 3. “Hibatul-haqoyiq”dagi ma’naviy leksika Ahmad Yugnakiy asarida “hikmat”, “taqvo”, “nafs”, “or”, “halol”, “sadoqat” kabi so‘zlar tasavvufiy-axloqiy konseptlarning markazida turadi. Bu so‘zlar orqali insoniy kamolot, ruhiy poklanish va ma’naviy erkinlik g‘oyalari ifodalangan. Shunday qilib, uchala manba tilida madaniy birlik, ma’naviy izchillik va til orqali uzatilayotgan qadriyatlar tizimi mavjud. O‘zbek tili XI–XII asr turkiy manbalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri davomchisi sifatida shakllangan. Shu bois o‘sha davr leksikasi zamonaviy o‘zbek tilida ham iz qoldirgan.

**XI–XII asr turkiy leksikasining o‘zbek tilidagi semantik davomiyligi**

**(1- jadval)**

| Tarixiy birlik | Zamonaviy shakl | Ma’no davomiyligi |
|---|---|---|
| bilim | bilim | to‘liq saqlangan |
| adab | odob, madaniyat | semantik jihatdan kengaygan |
| el | xalq | semantik torayish yuz bergan |
| yurt | vatan | barqaror semantika |
| haq | haqiqat, adolat | konseptual davomiylik |
| sabr | sabr | barqaror madaniy semantika |
| taqvo | taqvo | ma’no barqarorligi |

Ko‘rinib turibdiki, tarixiy manbalarda ishlatilgan ko‘plab birliklar zamonaviy o‘zbek tili lug‘atida ham faol qo‘llaniladi. Ayrim so‘zlarning semantik maydoni toraygan yoki mazmuni falsafiydan maishiyga siljigan.

Masalan, “adab” so‘zi ilgari “madaniyat”, “axloqiy go‘zallik”ni bildirgan bo‘lsa, bugungi

o‘zbek tilida u “odob” shaklida “xulq, muomala” ma’nosiga ko‘proq urg‘u beradi. Shunga qaramay, bunday leksik uzluksizlik turkiy til madaniyatining barqarorligini ko‘rsatadi. XI–XII asr turkiy leksikasining lingvomadaniy meros sifatida qadri juda yuksak, chunki turkiy yozma manbalar faqat tarixiy yodgorlik emas, balki madaniy identitetni shakllantiruvchi lingvistik asosdir. Bu asarlar tili orqali xalq o‘z axloqiy idealini, ijtimoiy qadriyatlarini va milliy ruhini avloddan-avlodga yetkazgan.

Ularning leksikasida:

- xalqning dunyoqarashi,
- axloqiy me’yorlar,
- diniy-falsafiy qadriyatlari,
- estetik didi va
- ijtimoiy ong darajasi aks etgan.

Bu jihatdan turkiy leksika — bu xalqning jamoaviy ong xotirasidir. Tilshunoslikda bunday so‘zlar “madaniy belgilar” deb yuritiladi, chunki ular millatning tarixiy-madaniy o‘zligini belgilovchi ramz sifatida yashab kelmoqda.

## XULOSA

XI–XII asr turkiy yozma yodgorliklari — “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul-haqoyiq” kabi asarlar turkiy xalqlarning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy hayotini yorituvchi bebaho manbalardir. Ularning leksik tarkibini lingvomadaniy nuqtai nazardan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, xalq tafakkurining tarixiy-madaniy ildizlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu manbalar leksikasi o‘zida xalq ruhiyatining, ma’naviy qadriyatlarining va dunyoqarashining til shaklidagi ifodasini mujassam etgan.

Yuqoridagi manbalar leksikasining tahlili jarayonida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib chiqardi: XI–XII asr turkiy manbalari leksikasi xalq madaniyatining tildagi ko‘rinishidir. Har bir leksik birlik o‘z zamonining madaniy semasini, xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu boisdan bu davr leksikasini tahlil qilish orqali turkiy xalqlarning mental-madaniy portretini tiklash mumkin.

O‘rganilgan manbalar leksikasida uch asosiy madaniy qatlam aniqlandi: etnografik-maishiy qatlam – xalqning kundalik hayoti, turmush tarzi va moddiy madaniyatini aks ettiradi (“yurt”, “toy”, “bozor”, “qo‘rg‘on” va b.).

axloqiy-ma’naviy qatlam – axloq, odob, sadoqat, sabr, halollik kabi qadriyatlarni ifoda etuvchi birliklardan iborat (“adab”, “haq”, “sadoqat”, “to‘g‘rilik” va b.).

diniy-falsafiy qatlam – tasavvuf va islom falsafasi bilan bog‘liq konseptlarni o‘zida mujassam etadi (“nafs”, “ruh”, “hikmat”, “haqiqat”, “nur” va b.).

Asosiy lingvomadaniy konseptlar sifatida “bilim”, “adolat”, “adab”, “el-yurt” kabi konseptlar eng faol lingvomadaniy markazlar sifatida aniqlandi. Bu konseptlar xalqning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi madaniy semantik tizimni tashkil etgan.

Turkiy manbalar orasidagi o‘zaro lingvomadaniy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ulardan, “Devonu lug‘otit turk” asari xalq tilining etnolingvistik asoslarini belgilagan bo‘lsa, “Qutadg‘u bilig” esa bu asosni siyosiy-axloqiy falsafa darajasiga ko‘targan. “Hibatul-haqoyiq”da tasavvufiy yo‘nalish ustivor bo‘lib, unda til orqali ruhiy-ma’naviy kamolot konsepsiyasini shakllangan. Shu tariqa, bu uch asar turkiy madaniyatning lingvokulturologik zanjirini tashkil etadi.

Zamonaviy o‘zbek tili leksikasida bu davr manbalaridagi ko‘plab birliklar semantik barqarorlikni saqlagan. “Bilim”, “adolat”, “haq”, “yurt”, “el” kabi birliklar bugungi kunda ham o‘z madaniy semantikasini yo‘qotmagan, bu esa til taraqqiyotida madaniy uzluksizlik mavjudligini ko‘rsatadi. XI–XII asr turkiy manbalari leksikasi xalqning madaniy xotirasi sifatida til orqali avloddan-avlodga o‘tgan konseptual tizimni saqlagan. Bu tizim xalq tafakkurining kognitiv modeli bo‘lib, u o‘zbek tilining bugungi semantik maydonlarida ham yashovchanlikni davom ettirmoqda.

## Conclusion

In summary, the study analyzed the use of lexical transformation methods in translating linguocultural units from Uzbek into English within “O‘tkan kunlar”. The research identified, classified, and compared translation strategies applied by three translators. The findings demonstrate that transliteration and modulation are the most dominant methods, reflecting a combined effort to preserve both linguistic form and cultural essence.

Ultimately, the research underscores the

importance of selecting appropriate translation strategies to ensure adequacy, cultural equivalence, and reader comprehension. Linguocultural analysis, therefore, proves essential in bridging languages and cultures, making the translation not only a linguistic act but also an act of cultural mediation.

The translation of linguoculturemes is inherently linked to the application of lexical transformations, as these strategies enable the translator to bridge linguistic and cultural gaps and to convey culture-bound meanings accurately in the target language. So there is a close interrelation between lexical transformations and the translation of linguoculturemes, as the use of appropriate transformation techniques often ensures the accurate conveyance of culture-specific meanings from the source language into the target language.

## References


1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1960.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.
3. Ahmad Yugnakiy. Hibatul-haqoyiq. — Toshkent: Yozuvchi, 1974.
4. Jo‘rayev, N. (2015). “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy tushunchalarning lingvomadaniy tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, №6, 45–52.
5. Ergashev, A. (2018). Turkiy tillar leksikasining tarixiy taraqqiyoti va lingvomadaniy tahlili. — Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Mamatov, B. (2019). Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuv asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
7. Abdurahmonova, M. (2020). O‘zbek tilida qadimiy turkiy qatlamning semantik davomiyligi. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
8. To‘xtayev, T. (2017). Turkiy yozma yodgorliklar leksikasi va xalq madaniyati. — Samarqand: SamDU nashriyoti.
9. Qodirova, D. (2021). “Turkiy tillar tarixida ‘adolat’ konseptining shakllanishi va o‘zbek tilidagi izchilligi”. TDPU ilmiy to‘plami, №3, 112–120.
10. Kononov, A. N. (1958). Grammatika sovremennogo uzbekskogo yazyka. — Moskva: AN SSSR.
11. Baskakov, N. A. (1969). Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. — Moskva: Nauka.
12. Klyashtorny, S. G., Sultanov, T. I. (2004). Gosudarstva i narody Evraziyskikh stepey: Drevnost’ i srednevekov’e. — Sankt-Peterburg: Peterburgskoe Vostokovedenie.
13. Tekin, T. (2000). A Grammar of Orkhon Turkic. — Bloomington: Indiana University Press.
14. Ceylan, E. (2012). Turkic Cultural Heritage and Linguistic Continuity. — Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
15. Brown, K., Ogilvie, S. (Eds.). (2009). Concise Encyclopedia of Languages of the World. — Oxford: Elsevier.
16. Bartold, V. V. (1963). Sochineniya. Tom V: Turetskie narody i islom. — Moskva: Nauka.
17. Abdullayeva, Z. (2022). “Turkiy yozma manbalarda axloqiy tushunchalarning lingvokulturologik talqini”. Filologiya masalalari jurnali, №2, 56–63.